

**“O‘zagrosug‘urta” AJning Boshqaruvi, filiallarida Korruptsiyaga qarshi tartib-
taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish
USLUBIYOTI**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Uslubiyot “O‘zagrosug‘urta” AJning Boshqaruvi, filiallarining (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) ichki normativ hujjati hisoblanadi va Jamiyatda Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan tartib-taomillar va Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan ichki normativ hujjatlar bajarilishini monitoring va nazorat qilish tartibi hamda standartlarini belgilaydi.

2. Ushbu Uslubiyotda monitoring deganda Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi samaradorligini baholash hamda Jamiyat faoliyatida Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida tekshirish, nazorat deganda tanqidiy o‘rganish ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi holatining tahlili tushuniladi.

3. Mazkur Uslubiyot O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, Jamiyatning ichki normativ hujjatlari talablariga muvofiq, shuningdek, Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ilg‘or xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

4. Korruptsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish (keyingi o‘rinlarda – monitoring va nazorat) Jamiyatning Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmasi tomonidan amalga oshiriladi.

5. Monitoring va nazoratning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

Jamiyat faoliyatining Korruptsiyaga qarshi qabul qilingan talablarga muvofiqligini tekshirish;

Korruptsiyaga oid va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, Korruptsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning yetariligi va Korruptsiyaga qarshi tadbir etilgan tartib-taomillarning samaradorligini oshirish va baholash;

kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali Jamiyatning Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish;

Jamiyatning Korruptsiyaga qarshi ichki normativ hujjatlari va tartib-taomillariga rioya qilinishini tahlil qilish;

Jamiyat faoliyatida Korruptsiya xavf-xatarlar indikatorlarini aniqlash;

manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash va tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini tahlil qilish;

Jamiyatning Korruptsiya xavf-xatarlarini kamaytirishga qaratilgan boshqa tartib-taomillarining bajarilmaganligini aniqlash;

Jamiyatda avvalgi o‘tkazilgan monitoring natijalari va Korruptsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillari, xizmat tekshiruvlari, ichki audit tekshiruvlari, boshqa nazorat choralari va ular doirasida taqdim etilgan tavsiyalarga rioya qilinishi,

shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish rejasida tasdiqlangan boshqa tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qilish;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining samaradorligini ISO 37001:2025 xalqaro standarti talablariga muvofiqligini baholash.

6. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

kontragent (shartnomaviy sherik) – Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

Korrupsiyaviy xarakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaaddor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarni yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarni ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

Korrupsiyaga qarshi tizim – Korrupsiyaviy harakatlarning, O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, Jamiyat xodimlari tomonidan o'z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar;

relevant xabar – Jamiyatdagi Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo'lgan axborot;

xodim – Jamiyat bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

ISO 37001:2025 – korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi bo'yicha xalqaro standart.

II. Monitoring va nazorat o'tkazish yo'nalishlari va tadbirlari

7. Jamiyatda quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha Korrupsiyaga qarshi monitoring o'tkaziladi:

idoraviy korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining qonunchilik, ISO 37001:2025 hamda boshqa xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;

ommaviy axborot vositalarida Jamiyat xodimlarining yoki uning kontragentlarining Korrupsiyaviy hatti-harakatlari to'g'risidagi axborot mavjudligi monitoringi;

Jamiyat xodimlarining Korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi.

8. Jamiyatdagi Korrupsiyaga qarshi tizimning nazorati quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

Korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo'l xaritalari ijrosi ustidan nazorat;

Jamiyatdagi Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat.

III. Korrupsiyaga qarshi idoraviy tizim monitoringini o'tkazish tartibi

9. Idoraviy Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi Kompalaens-nazorat bo'limi tomonidan doimiy ravishda O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashga oid qonunchiligi va boshqa Korrupsiyaga oid talablarni kuzatib borish yo'li bilan amalga oshiriladi. Monitoring natijalari asosida ichki normativ hujjatlarni takomillashtirish zarurati yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.

10. Ommaviy axborot vositalarida Jamiyat xodimlarining Korrupsiyaviy hatti-harakatlari to'g'risidagi axborot mavjudligi monitoringi, Jamiyat axborot xizmati tomonidan doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish orqali amalga oshiriladi.

Monitoring natijasida xodimga aloqador relevant xabar aniqlanganda Jamiyatdagi xodimlarining Korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda harakat qilinadi.

11. Jamiyat xodimlarining asosiy Korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablar to'g'risida xabardorligini tekshirish Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmasi tomonidan yarim yilda bir marta amalga oshiriladi.

Xodimlarning xabardorligi mazkur uslubiyotga 1-ilovada keltirilgan xodimlarining Korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish tizimiga muvofiq o'tkazilib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tanlov asosida Jamiyat xodimlarining tekshiruvda ishtirokini aniqlash (so'rovda qatnashadigan xodimlarning minimal soni Jamiyatning turli tuzilmalaridan turli lavozimlarni egallagan 6 kishi);

Korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va Jamiyat talablariga muvofiq savollar ro'yxatini tuzish (vaziyatli topshiriqlar - keyslarni yechish bilan) savollarning minimal soni 10 ta, test, ochiq savollar yoki boshqa shaklda tuzilishi mumkin);

javob/yechimlarni taqdim qilish uchun tanlangan xodimlarga nazorat savollarini yuborish;

natijalarni tahlil qilish va Korrupsiyaga qarshi kurashish talablari va tartib-taomillarini tushunish va ularga rioya qilishdagi qiyinchiliklarni xodimlar bilan muhokama qilish.

12. O'tkazilgan monitoring va uning natijalari to'g'risidagi axborot 2-ilovaga muvofiq shaklda jurnalga kiritiladi.

IV. Jamiyatdagi Korrupsiyaga qarshi tizimning nazoratini amalga oshirish

13. Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi dasturlari, yo'l xaritalari ijrosi ustidan nazorat Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha ichki idoraviy hujjatga muvofiq hisobot tuzish davomida amalga oshiriladi.

14. Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat Jamiyatdagi Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashkil qiladigan funktsiya, tartib-taomillar, Korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan munosabatlarga nisbatan Jamiyatda joriy etiladigan va amalga oshiriladigan chora-tadbirlarga nisbatan amalga oshiriladi. Nazorat tadbirlari xavfga asoslangan yondashuv asosida rejalashtiriladi va o'tkaziladi.

15. Jamiyat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat perimetriga quyidagi xavfli jarayonlar kiritilishi mumkin:

- xaridlar bo'yicha faoliyat;
- sovg'alar, xizmat safarlari xarajatlari;
- faoliyati nazorat qilinuvchi tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik;
- moliyaviy mablag'larni sarflanishi;
- personalni boshqarish (kadrlarni tanlash, tayinlash, mukofotlash va boshqa ko'rinishdagi rag'batlantirish).

16. Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat olib boriladigan faoliyat jarayonlarining ko'rsatilgan ro'yxati har yili Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash natijalariga ko'ra Koplaens-nazorat bo'limi tomonidan ko'rib chiqiladi va agar lozim bo'lsa, Korrupsiya nuqtai nazaridan xavfli bo'lgan yoki Jamiyat uchun dolzarb bo'lmagan jarayonlar nuqtai-nazaridan, Jamiyat Boshqaruvi raisi va Jamiyatning tegishli bo'limlari bilan kelishilgan holda, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali tuzatish kiritiladi. Jarayonlarni qayta ko'rib chiqishda ularning qoldiq korrupsiyaviy xavf darajasi ham inobatga olinadi.

17. Bir yoki bir nechta xavfli jarayonlarga nisbatan Korrupsiyaga qarshi nazorat davriy oraliqda, lekin Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi monitoring va nazorat rejasiga muvofiq har chorakda kamida 1 (bir) marta amalga oshiriladi.

18. Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat rejasi ikki kalendar yilga mo'ljallab Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmasi tomonidan joriy yilning 15-yanvariga qadar shakllantiriladi va ushbu Uslubiyotda ko'rsatilgan (15- va 16-bandlar) Jamiyatning barcha jarayonlarini, tekshiriladigan davri va tekshiruv muddatlarini o'z ichiga olishi kerak. Shu bilan birga, tegishli chorakda tekshirilishi kerak bo'lgan xavf-xatar jarayonlarining ketma-ketligi va taqsimlanish jarayoni Jamiyatning Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo'yicha ichki idoraviy hujjatida ko'rsatilgan, mehnat resurslari bilan ta'minlagan holda qonunbuzarliklar to'g'risida xabar berish kanallari yoki boshqa usullar orqali, rahbariyatdan olingan joriy ko'rsatmalarga ko'ra Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmasi tomonidan belgilangan tartibda xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha jarayonlarning qoldiq xavf darajasiga qarab amalga oshiriladi.

19. Tayyorlangan Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat rejasi 31-yanvarga qadar Jamiyat Boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

20. Jamiyatda rejadan tashqari Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat choralari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

Jamiyat Boshqaruvi raisining tegishli buyrug‘i asosida;

Jamiyatda o‘tkazilgan tekshiruvlar (rasmiiy tekshiruvlar, ichki auditorlik tekshiruvlari va boshqalar) davomida Korrupsiya xatarlari aniqlanganda;

Jamiyatning aloqa kanallari orqali tegishli xabar olingan taqdirda.

21. Nazorat tadbirlari tekshiruv shaklida o‘tkazilib, shu jumladan, Korrupsiyaviy harakatlarning indikatorlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lishi kerak, ular doirasida quyidagi tartib-taomillar ham amalga oshirilishi mumkin:

Jamiyat tomonidan tuzilgan shartnomalardagi ma‘lumotlarni tovarlarni qabul qilish va topshirish hujjatlari yoki xizmatlar ko‘rsatish, ishlarni bajarish hujjatlari bilan solishtirish;

tovarlarni haqiqiy sotib olish va ulardan foydalanish yoki xizmatlar ko‘rsatish, ishlarning bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotlarni ularning miqdori va sifati bilan tegishli shartnoma va hujjatlarda belgilangan tartibda solishtirish;

kontragentni yoki Jamiyatda ishlashga nomzodni tekshirish natijalariga asoslangan xulosada aks ettirishning to‘liqligini, tahlil qilish uchun taqdim etilgan va axborot manbasining mazmunini qayd qiluvchi hujjatlar tarkibidagi ma‘lumotlarning to‘liqligini tekshirish, shuningdek, kontragent yoki ishlashga nomzodning shartnomada ko‘rsatilgan ma‘lumotlari va tekshiruvdan o‘tgan shaxsning ma‘lumotlarining muvofiqligini tekshirish;

kontragent va Jamiyat, shu jumladan, muvofiqlashtiruvchi shaxslar tomonidan shartnoma boshqa ma‘muriy hujjatlar imzolovchilarining vakolatlari mavjudligini tekshirish, taqdim etilgan hujjatlarni vakolatli shaxslarning imzolari bilan vizual ravishda mosligini solishtirish;

kontragentning rekvizitlarini va tegishli shartnoma bo‘yicha summani buxgalteriya hisobi ma‘lumotlari bilan solishtirish;

Jamiyat yoki kontragent xodimlari tomonidan taqdim etilgan hujjatlarida tuzatish, o‘chirish, soxtalashtirish belgilari yo‘qligini tekshirish;

qonun hujjatlariga va Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq talab etiladigan ommaviy axborot manbalarida e‘lonlarning mavjudligini tekshirish (raqobatlashuv xarid qilish tartib-taomillarining e‘lon qilinganligi to‘g‘risida ma‘lumot va hk.);

vujudga kelayotgan masalalar bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumot va izohlar olish uchun Jamiyat xodimlari bilan suhbat;

Nazorat tadbirlari davomida aniqlangan tizimli kamchiliklarning takrorlanish sabablari ham alohida tahlil qilinadi.

22. Nazorat tadbirlari yakunida ma‘lumotnoma tuziladi (keyingi o‘rinlarda - Ma‘lumotnoma deb yuritiladi), u kirish, tavsiflovchi va yakuniy qismlarni o‘z ichiga olishi lozim va ularda, odatda, quyidagilar ko‘rsatiladi:

Kirish qismida:

Har bir vazifa va tartib-taomillar uchun nazoratning boshlanish va tugallanish sanalari;

nazorat o‘tkazilgan vazifa va tartib-taomillar ro‘yxati;

nazorat o‘tkazilgan vazifa va tartib-taomillarni bajarishga mas‘ul bo‘lgan bo‘limlar va shaxslar ro‘yxati;

Hisobotni tuzish uchun mas‘ul xodimning FISH.

Tavsiflovchi qismida:

nazorat o'tkazilgan har bir vazifa va tartib-taomillar bo'yicha tanlov amalga oshirilishi usuli va tanlash hajmi;

Jamiyat Korrupsiyaga qarshi tizimining aniqlangan koidabuzilishlari va kamchiliklari, shu jumladan, kamchiliklarning vujudga kelishi yoki rivojlanishiga hissa qo'shgan sabablar va sharoitlar.

Yakuniy qismida:

nazorat o'tkazilgan har bir vazifa va tartib-taomillarda Korrupsiya xatarlarining mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida xulosa;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining buzilgan normalari, Jamiyatning ichki hujjatlarida ko'rsatilgan asosiy qoidabuzarliklar;

nazorat o'tkazish vaqtida aniqlangan qoidabuzarlik yoki kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha mas'ul ijrochilar, bajarish muddati va monitoring qilish tartibi.

23. Ma'lumotnomaga kiritilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerak.

24. Ma'lumotnoma Jamiyat Boshqaruvi raisiga taqdim etiladi hamda o'tkazilgan nazorat to'g'risidagi ma'lumot 1-ilovaga muvofiq shaklda Jurnalga kiritiladi.

V. Yakuniy qoidalar

25. Monitoring va nazorat yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga kiritiladi hamda ularning bajarilishi yuzasidan doimiy monitoring olib boriladi.

26. Monitoring va nazorat yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarni bajarish, amalga oshirilgan ishlar haqida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmasiga tegishli ma'lumotlar taqdim etilishi uchun Jamiyat tarkibiy bo'linmalari rahbarlari shaxsan javobgardir.

**“O‘zagrosug‘urta” AJning Boshqaruvi, filiallari xodimlarining korrupsiyaga qarshi
tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish
TIZIMI**

T/r	Tekshiruv yo‘nalishi	Tekshiruv tadbirlari
1.	Jamiat xodimlariga odob-ahloq qoidalariga, korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilish masalalari bo‘yicha treninglar (onlayn, oflayn) o‘tkazilishining monitoringi	Treninglar muntazamligi, ularni mazmuni va qatnashuvchi shaxslar qismi bo‘yicha ichki talablarga rioya qilinishini nazorat qilish.
2.	Korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va tartib-taomillar talablarini bilishini tekshirish	Jamia xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish treninglari doirasida o‘tkaziladigan test yoki boshqa nazorat tadbirlaridan o‘tishlari natijalarining tahlili; Xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat bilan imzo qo‘ydirilgan holda majburiy tarzda tanishtirilganligini tekshirish; Xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillarning bilishini tanlov asosida tekshirish: a) tekshiruvda qatnashish uchun Jamiatxodimlarini tanlov asosida aniqlash (so‘rovda qatnashadigan xodimlarning eng kam soni – Tashkilotda turli tarkibiy bo‘linmalardan turli lavozimlarni egallab turgan kishilar soni – 6 nafar); b) ichki hujjatlarda ko‘rsatilgan korrupsiyaga qarshi talablar va normalar bo‘yicha (muayyan vaziyatda vazifa – keyslarni hal qilish bilan) savollar ro‘yxatini tuzish (savollarning eng kam soni 10 ta, ular test formatida, ochiq savollar shaklida yoki boshqacha usulda tuzilishi mumkin); v) javoblar/qarorlarni taqdim qilishlari uchun tanlab olingan xodimlarga nazorat savollarini yuborish; g) natijalarni tahlil qilish va xodimlar bilan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni tushunishda qiyinchiliklarni muhokama qilish.

“O‘zagrosug‘urta” AJning Boshqaruvi, filiallarida
Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini
monitoring va nazorat qilish uslubiyotiga
2-ilova

**“O‘zagrosug‘urta” AJning Boshqaruvi, filiallarida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning
samaradorligini monitoring va nazorat qilish
JURNALI**

T/r	Monitoring / tadbir turi	Chora-tadbirlarni monitoring qilish davriyligi (har chorakda/har yarim yilda/ doimiy)	Monitoring / nazoratni oʻtkazish sanasi	Kuzatuvni tafsiloti	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini toʻgʻrilash choralari	Masʼul ijrochi	Toʻgʻrilanadigan chora-tadbirlarning ijro muddati	Ijro holati
Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yetarliligini baholash								
1.	Idoraviy korrupsiyaga qarshi tizim tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi	Doimiy ravishda						
Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholash								
2.	OAV monitoringi	Doimiy ravishda						
3.	Jamiat xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi	Har yarim yilda						
4.	Korrupsiyaga qarshi dasturlar, yoʻl xaritalari ijrosi ustidan nazorat	Har chorakda						
5.	Tashkilotdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat	Har chorakda						